

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH DAVLATLARI BILAN HAMKORLIGINING BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLLARI**

**Xushmatova S.**

O‘zMU Tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Bugun kunda O‘zbekiston Respublikasi va MDH davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik yuqori bosqichlarga ko‘tarilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-sentabr kuni Qirg‘izistonga tashrifi buning yorqin isbotidir. Ikki davlat o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlik asosan, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari, mamlakatlarimizning chegaraoldi hududlari aloqalarini faollashtirish, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi. Muzokaralarda ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarga oid dolzarb masalalar muhokama qilindi. 2017-yilning o‘tgan davrida mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 60 foiz o‘ydi<sup>1</sup>. Ikki davlat o‘rtasida madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 2017-yil fevral oyida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O‘sh davlat o‘zbek musiqali akademik drama teatrining Farg‘ona vodiysiga ijodiy safarini, iyun oyida Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri jamoasining O‘sh, O‘zgan, Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlariga ijodiy safarini alohida qayd etish lozim. 2017-yil oktabr oyida Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari, 2018-yil O‘zbekistonda Qirg‘iziston madaniyati kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi. Bugun O‘zbekistonda 300 mingga yaqin qirg‘iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qiladi. Ularning o‘z madaniyati, tili, an‘ana va urf-odatlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. 6 ta qirg‘iz milliy madaniy markazi faoliyat ko‘rsatmoqda, 56 ta maktabda ta‘lim qirg‘iz tilida olib boriladi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari o‘rtasida Qo‘shma bayonot va O‘zbekiston

---

<sup>1</sup> Do‘stlik va ishonchga asoslangan hamkorlik // Xalq so‘zi. 2017-yil 6-sentabr.

Qirg'iziston davlat chegarasi to'g'risida shartnoma imzolandi. Andijon va O'sh, Toshkent va Bishkek shaharlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlik to'g'risida, Soliq qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida, Mintaqalararo hamkorlik to'g'risida hukumatlararo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitimlar, Chegaradosh mintaqalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha 2017-2019 yillarga mo'ljallangan qo'shma tadbirlar rejasi, Parlamentlararo hamkorlik to'g'risidagi memorandum va boshqa muhim hujjatlar imzolandi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasi sobiq Prezidenti Almazbek Atamboyev 2017-yil 5-6 oktabr kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekiston Respublikasida bo'lganligi katta ahamiyat kasb etdi. Muzokaralarda ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi. Ikki mamlakat hamkorligi 1996-yil 24-dekabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma asosida izchil rivojlanmoqda. Keyingi bir yilda mamlakatimiz o'rtasidagi hamkorlik rivojida yangi sahifa ochildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-6 sentabrdagi Qirg'iziston Respublikasiga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda katta ahamiyatga ega. Unda savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, madaniyat sohalarida va chegaralar masalasida imzolangan hujjatlar o'zaro aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya bu borada muhim o'rin tutishi ta'kidlandi. O'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar yaqinda O'shda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmada ishtirok etdi. Qirg'iziston Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida "O'zekspomarkaz"da sanoat mahsulotlari

---

<sup>2</sup> Do'stlik va ishonchga asoslangan hamkorlik // Xalq so'zi. 2017-yil 6-sentabr.

ko'rgazmasi va biznes forum tashkil etildi. Shavkat Mirziyoyev va Almazbek Atamboyev O'zbekiston va Qirg'iziston sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdi. Muhokamalarda transport kommunikatsiyalari sohasidagi aloqalarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu ikki mamlakatning iqtisodiy va transit imkoniyatlarini oshirishi, yangi transport yo'laklari ochish tomonlarga birdek manfaat, qo'shimcha daromad keltirishi ta'kidlandi. "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" temir yo'li va "Andijon-O'sh-Irkeshtom-Qoshg'ar" avtomobil yo'li qatnovi bu borada ulkan ahamiyat kasb etadi. Madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari keng. Shu maqsadda ta'lim, fan va texnika sohasida hamkorlik, ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar rivojlantirilmoqda. Bu ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash, tadqiqotchilar, mutaxassis va talabalar almashinuvi, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish, malaka va ilmiy darajalar masalalari bo'yicha axborot almashish uchun qulaylik yaratadi. O'zbekistonda qirg'iz tilida o'qitiladigan, Qirg'izistonda darslar o'zbek tilida o'tiladigan maktablar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston ko'magida O'sh shahrida zamonaviy maktab bunyod etilmoqda. Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Respublikasi sobiq Prezidenti Almazbek Atamboyev O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida strategik sherikchilik, do'stlik, ahil qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risida deklaratsiyani imzoladilar. Davlat rahbarlari huzurida ikki mamlakat hududlari, vazirlik va idoralari o'rtasidagi hamkorlikka doir 10 dan ortiq hujjat imzolandi. 2017-yil 10-11kunlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida sammit o'tkazildi. Ushbu sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ham ishtirok etdi. Ushbu sammitda hamdo'stlik doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu xalqaro tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi<sup>3</sup>. O'zbekiston MDH doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

---

<sup>3</sup> Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Sochi sammiti.: // Toshkent oqshomi. 2017-yil 12-oktabr.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, turizm, ilm-fan, ta’lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini ta’kidladi. 2017-yil boshidan buyon O‘zbekiston Respublikasi bilan MDH davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 20 foiz o‘sgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti a’zo mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, Hamdo‘stlik doirasida yangi, aniq loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini qayd etdilar. Transport va kommunikatsiyalar hamkorlikning strategik muhim yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zaro integratsiyalashgan transport tizimlarini rivojlantirish, Hamdo‘stlik mintaqasining ulkan tranzit salohiyatidan to‘la foydalanish barcha uchun manfaatli hisoblanadi. Ma’muriy jarayonlarni takomillashtirish va o‘zaro imtiyozlar berish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasidagi imkoniyatlar ham to‘la ishga solinmagani, bu imkoniyatlarni tahlil qilish va aniq-chora tadbirlar ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi. MDH mamlakatlari o‘rtasidagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida Afg‘onistondagi vaziyatga ham e’tibor qaratildi. Jinoiy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya, terrorizm, narkobiznes kabi xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashish masalalari muhokama qilindi. MDHga raislik qiladigan navbatdagi mamlakat masalasi ko‘rib chiqildi. Umumiy qarorga muvofiq, 2018-yildan ushbu xalqaro tuzilmaga raislik Tojikiston Respublikasiga o‘tganligi ta’kidlandi<sup>4</sup>. Sammitda Hamdo‘stlik mamlakatlarining Parlamentlararo assambliyasi faoliyatini takomillashtirish, Tashqi ishlar vazirlari kengashi va Iqtisodiy kengashini rivojlantirish, kelgusi yillarda MDHning madaniy poytaxtlarini belgilash kabi masalalar muhokama qilindi. MDHga a’zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Oila instituti va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bayonoti, Hamdo‘stlikda 2019-yilni Kitob yili, 2020-yilni 1941-1945 yillardagi “Ulug‘ Vatan urushi”da qozonilgan g‘alabaning 75 yilligi yili, deb e’lon qilish haqida qaror qabul qilindi. Hamdo‘stlik mamlakatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi

---

<sup>4</sup> Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining Sochi sammiti.: // Toshkent oqshomi. 2017-yil 12-oktabr.

hamkorligiga doir konsepsiyalar ma'qullandi. Sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sherikchilik va ittifoqchilik munosabatlari aniq amaliy mazmun bilan boyiganini alohida ta'kidladilar. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 14-noyabrda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma asosida izchil rivojlanib bormoqda. Bu ikki mamlakat BMT, SHXT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekiston Prezidentining Rossiyaga davlat tashrifidan so'ng o'tgan qisqa davrda o'zaro aloqalar sezilarli faollashdi. Hamkorlik doirasiga yangi sohalar qo'shildi. Rossiya Federatsiyasi O'zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida Rossiyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Eksport va importning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. 2017-yil boshidan buyon o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 3 milliard dollardan oshgan. Sammitda sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida kooperatsiya kuchaygani, biznes vakillari hamkorligi kengaygani, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamlanib borayotgani ta'kidlandi. 2017-yil 16-sentabr kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning yurtimizga tashrifi yaqin qardoshlik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. O'zbek va qozoq xalqlari azaldan bir-biriga yelkadosh bo'lib, ahil-inoq yashab kelishgan. Xalqlarimizning tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari bir-biriga yaqin. Bu yaqinlik bugungi kunda davlatlararo hamkorlikka mustahkam asos bo'lmoqda<sup>5</sup>. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik 1998-yil Toshkentda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma, 2013-yil Toshkentda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma alohida ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>5</sup> Yaqin qardoshlik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi: // Xalq so'zi.2017-yil 17-sentabr.

Ikki tomonlama hamkorlik barcha sohalarni qamrab olgan. Parlamentlar, vazirlik va idoralar o'rtasidagi aloqalar muntazamlik kasb etgan. Mamlakatlarimiz BMT, SHXT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Tashrif doirasida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida 2017-2019 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga kuchli sur'at bag'ishladi. Ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiya, energetika, qishloq xo'jaligi, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama etildi. Ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham kelishuvlarga erishildi. Xususan, 2018-yilda Qozog'istonda O'zbekiston yilini va 2019-yilda O'zbekistonda Qozog'iston yilini o'tkazib olishga kelishib olindi. O'zbekiston-Qozog'iston hamkorligining turli sohalariga doir 10 dan ziyod hujjat imzolandi<sup>6</sup>. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stlik mamlakatlari ham O'zbekiston Respublikasi bilan manfaatli hamkorliklarining katta ahamiyatga egaligi ayni haqiqatdir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bilan MDH mamlakatlari o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi va MDH mamlakatlari hamkorlik aloqalarida tinchlik, barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

---

<sup>6</sup> Yaqin qardoshlik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi:// Xalq so'zi.2017-yil 17-sentabr.